

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**V RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Muxsinova Musallamxon

TABIY FANLARDA HAYOTIY MUAMMOLAR YECHIMI

(FIZIKA VA MATEMATIKA ASOSIDA) 5-7

TEXNIKA FANLARI

Baxriddinov Nodirbek

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN

QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI: AQSh VA YeVROPA TAJRIBASI 8-11

TARIX FANLARI

To'uchiyeva Dilnoza

ZOMIN TUMANINING IQTISODIY TARIXI XUSUSIDA (2013-2024 YILLAR) 12-19

Норов Шухрат

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДИ

МОЛОДЕЖИ 20-25

Bazarbayeva Nilufar

O'ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI XUSUSIDA 26-29

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LARDAN FOYDALANISHNI

TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI 30-34

Кайыбеков Парахат

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ АВТОМОБИЛЬНЫМИ ТРАНСПОРТНЫМИ

УСЛУГАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ 35-41

Ibragimov Jakhongir

SANOAT KORXONALARIDA YASHIL INNOVATSIYALARNI JORIY QILISHGA EKSTERMAL IQLIM

O'ZGARISHLARI TA'SIRINI BAHOLASH 42-45

FALSAFA FANLARI

Mamadiyarova Malika

GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR TRASFORMATSIYASI 46-48

Ro'ziyev Maqsud

ABULHASAN BAXMANYOR MA'NAVIY MEROSIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI 49-52

FILOLOGIYA FANLARI

Tursinbaev Ilham

BOLALAR POEMALARIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI 53-57

Pulatjonova Muxtasar

HOW DO UZBEK LEARNERS USE DISCOURSE MARKERS IN ENGLISH SPEAKING: A LEARNER

CORPUS ANALYSIS 58-60

Abdulxayeva Nodirabegim

TRANSLATION OF REALIA IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION 61-63

Absalomova Feruza

KOREYS TILI O'RGATISHDA O'QUVCHI MOTIVATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY KONTEKST 64-68

GEOGRAFIYA FANLARI

Nazirov Mirjalol

FARG'ONA VILOYATIDAGI MIGRATSION JARAYONLARNING RETROSPEKTIV TAHLILI VA
HUDUDIIY DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI 69-71

YURIDIK FANLARI

Tog'onova Jemala

MEDIATSIYADA ADVAKATNING RO'LI 72-76

Shomurodov Sanjar

SUN'IY INTELLEKT MAHSULOTLARINI MUHOFAZA QILISHDA HUQUQIY MUVOFIQLIK
MASALASIDA YAGONA XALQARO KONVENSIYA ZARURATI 77-80

Qilichev Nosirbek

SPORT TAVAKKALCHILIGI – QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT
SIFATIDA 81-84

Xolmo'minova Barchinoy

DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI VA ULARNI TAYINLASHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 85-90

PEDAGOGIKA FANLARI

Таджибаева Альбина

РЕФЛЕКСИВНАЯ ПРАКТИКА В ОБУЧЕНИИ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И СТРАТЕГИИ
ФОРМИРОВАНИЯ ТРАСК..... 91-96

Собирова Гулибарно

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ..... 97-101

TIBBIYOT FANLARI

Numonjonov Asrorjon, Mansurova Nargiza

ICHKI MUHIT REZONANSINING MIGREN TRIGGERLARIGA TA'SIRI: TIZIMLI VA ICHAK
FAKTORLARINING INTEGRATSIYASI 102-104

PSIXOLOGIYA FANLARI

Kurbonov Munis

KASBIY IDENTIFIKATSIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH..... 105-107

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI**TABIY FANLARDA HAYOTIY MUAMMOLAR YECHIMI (FIZIKA VA MATEMATIKA ASOSIDA)****Muxsinova Musallamxon Qosimjon qizi**

Namangan davlat universiteti, fizika yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizika va matematika fanlari asosida hayotiy muammolarni hal etish masalalari ko'rib chiqilgan. Elektr energiyasini tejash, suv tanqisligi va tozalash kabi dolzarb muammolar misolida ilmiy yondashuvning amaliy ahamiyati yoritilgan. Hisob-kitoblar va formulalar orqali muammolarga oddiy, iqtisodiy va foydali yechimlar taklif etilgan. Maqola ta'lim jarayoni va real hayot o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tabiiy fan, energiya muammosi, suv muammosi, ilmiy yondashuv.

SOLUTION OF LIFE PROBLEMS IN NATURAL SCIENCES (BASED ON PHYSICS AND MATHEMATICS)**Muhsinova Musallamkhon Qosimjon qizi**

Namangan State University, physics student.

Annotation. This article explores the resolution of real-life problems based on the principles of physics and mathematics. It highlights the practical significance of a scientific approach through examples such as energy saving, water scarcity, and purification. Using calculations and formulas, simple, cost-effective, and efficient solutions are proposed. The article emphasizes the connection between education and everyday life.

Key words: natural sciences, energy problem, water scarcity issue, scientific approach.

DOI: <https://doi.org/10.47390/Ydif-Res5/No-01>

Kirish. Tabiiy fanlarni insoniyat taraqqiyoti va jamiyat hayotining barcha sohalarida muhim rol o'ynaydi. Bu fanlar ichida fizika va matematika alohida o'rin tutadi. Ular nafaqat nazariy bilimlar majmuasi, balki real hayotiy muammolarni ilmiy asosda hal qilish vositasidir. Hozirgi kunda energiya tansiqiligi, hisob-kitobdagi xatoliklar, resurslarni isrof qilish, suv yetishmovchiligi kabi dolzarb muammolar aynan shu fanlar asosida o'rganiladi va ularga samarali yechimlar taklif etiladi. Fizika hayotiy fan bo'lib, unda butun borliqdagi hodisalar ilmiy yondashuv orqali o'rganiladi. Uyda, ishda, ko'chada – hamma joyda fizik hodisalarni kuzatish mumkin. Ularni matematik usulda tahlil qilish orqali hayotimizni yaxshiroq tushunamiz, rejalashtiramiz va nazorat qilamiz. Fizika fani yordamida atrofimizdagi hodisalar – harakat, energiya, issiqlik, elektr tovush va boshqa juda ko'p jarayonlarni ilmiy asosda tushuntiriladi. Bu bilimlar kundalik hayotda uchraydigan ko'plab muammolarni hal qilishda yordam bera olishi mumkin. Masalan, uyda ovqat pishirishda issiqlik almashuvi, avtomobil harakati, telefonda muloqot qilganimizdagi elektromagnit to'lqin hodisalari – bularning barchasi fizika qonunlariga asoslangandir. Bular yordamida ko'plab muammolarni hal etishga yordam beradi. Elektr energiyasi muammosi, uni tejash, isrof qilmaslik va belgilangan limitgacha unumdor foydalanish kabilar. Elektr energiyasining isrof bo'lishi ko'pgina xonadonlarda katta muammo bo'lib qolmoqda. Hozirda elektr energiyasi iste'moliga davlat tomonidan limit belgilangan. Ushbu limitdan oshgan holda energiya ishlatilsa, tarif ko'payadi va ortiqcha to'lovlar paydo bo'ladi.

Bularning asosida esa matematik hisob-kitoblar yotadi. Fizika fanida quvvat ($P = U \cdot I$) va ish ($A = P \cdot t$) formulalari yordamida elektr energiyasini qanday sarflanishini aniqlash mumkin. Masalan, 60 Vt quvvatga ega bo'lgan oddiy lampochka 5 soat davomida ishlatilsa, 300 Vt·soat, ya'ni 0.3 kVt·soat energiya ishlatilgan bo'ladi. LED lampochka esa atigi 10 Vt bo'lib, 5 soat ishlasa 0.05 kVt·soat energiya sarflaydi.

Oddiy xonadonda 10 ta lampochka ishlatiladi deb faraz qilaylik. Agar ularning barchasi oddiy 60 Vt bo'lsa, bir oyda: $0.06 \text{ kVt} \times 5 \text{ soat} \times 30 \text{ kun} \times 10 \text{ dona} = 90 \text{ kVt} \cdot \text{soat}$ energiya sarflanadi. Agar LED lampochkalar ishlatilsa, $0.01 \text{ kVt} \times 5 \text{ soat} \times 30 \text{ kun} \times 10 \text{ dona} = 15 \text{ kVt} \cdot \text{soat}$ sarflanadi. Demak, faqat bitta o'zgarish orqali 75 kVt·soat energiya tejraladi.

Agar elektr energiyasi uchun limit ichida tarif 400 so'm, limitdan tashqarisi 800 so'm deb olinsa, oddiy lampochkalar uchun $90 \times 400 = 36\,000$ so'm, LED uchun esa $15 \times 400 = 6\,000$ so'm to'lov amalga oshiriladi. Ya'ni oyiga 30 000 so'm tejraladi. Bu oddiy, hamyonbop va real misol orqali energiya tejashga erishish mumkin. Yoki boshqa muammoni qarajak: suv tansiqiligi va iflos suvni tozalash. Bugungi kunda suv tanqisligi butun dunyo bo'ylab dolzarb muammoga aylangan. Ayniqsa, O'zbekiston kabi iqlimi qurg'oqchil hududlarda bu muammo yanada jiddiyroq seziladi. Ba'zi hududlarda ichimlik suvi yetarli emas, suv bosimi juda past yoki mavjud suv sifatsiz — ya'ni iflos holatda bo'ladi. Bu esa odamlarning sog'lig'i, turmush darajasi va hayot sifati uchun katta xavf tug'diradi.

Masalan, qishloq joylarda ko'p hollarda suv minorasi past balandlikda joylashgan bo'ladi, suv quvurlari eskirgan yoki uylargacha yetib borish uchun bosim yetarli emas. Natijada, suv krandan faqat oqib turmaydi — ayrim paytda umuman chiqmaydi. Ba'zi oilalar chelakda suv tashishga majbur bo'lishadi. Bundan tashqari, bu suvlar ko'pincha loyqa yoki mikroblar bo'ladi. Bu ichak kasalliklari, teri muammolari kabi sog'liq bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Fizikada suv bosimini aniqlash uchun maxsus formula mavjud:

$$P = \rho gh$$

Bu yerda:

ρ — suv zichligi (taxminan 1000 kg/m^3),

g — erkin tushish tezlanmasi (9.8 m/s^2),

h — suv ustunining balandligi (masalan, suv minorasining balandligi).

Ya'ni, suv minorasi baland bo'lsa, bosim ham ko'p bo'ladi. Agar suv minorasi juda past bo'lsa, suv uydagi ikkinchi yoki uchinchi qavatgacha ko'tarilmaydi.

Oddiy misol: Agar suv minorasi 10 metr balandlikda bo'lsa:

$$P = 1000 \cdot 9.8 \cdot 10 = 98000 \text{ Pa} = 0.98 \text{ bar}$$

Bu bosim bitta qavatli uy uchun yetarli bo'lishi mumkin, lekin ikki yoki uch qavatli uy uchun bu kamlik qiladi. Shuning uchun suv minorasi balandroq qurilishi kerak yoki nasos o'rnatilishi kerak. Agar suvda qum, loy, mikroblar yoki zararli moddalar bo'lsa, uni filtrdan o'tkazish kerak bo'ladi. Fizikada bu jarayon filtrlash deb ataladi. Bugungi kunda turli xil filtrlar mavjud:

Gravitatsion filtrlar — suv o'z og'irligi bilan filtrdan o'tadi (misol: keramik filtrlar).

Membranali filtrlar — juda kichik teshiklar orqali suv o'tadi, lekin bakteriyalar o'tolmaydi.

UV (ultrabinafsha) sterilizatorlar — nur yordamida suvdagi mikroorganizmlarni yo'q qiladi.

Bu texnologiyalar arzon bo'lishi mumkin, ularni hatto o'quvchilarning o'zi oddiy sharoitda yasab ko'rishi ham mumkin. Masalan, qum, ko'mir, toza mato yordamida oddiy filtr yasab, loyqa suvni tiniqlashtirish mumkin.

Keling, oddiy va arzon narxdagi gravitatsion (tortish kuchi bilan ishlaydigan) filtr misolida hisob-kitob qilamiz. Bu filtr elektrsiz ishlaydi va ichidagi tosh, qum, ko'mir, mato qatlami orqali suvni tozalaydi. Narxi taxminan 150 000 so'm turadi.

Misol holati:

Oila kuniga 60 litr ichimlik suvidan foydalanadi.

Tanlangan filtr kuniga 20 litr suv tozalay oladi.

Shuning uchun 3 ta filtr kerak bo'ladi ($60 \div 20 = 3$).

Har bir filtr oyiga 600 litr suv tozalaydi, 3 ta filtr esa 1800 litr suv beradi.

Filtrlar 6 oy davomida xizmat qiladi.

Xarajat: $150\,000 \times 3 = 450\,000$ so'm

6 oy davomida 3 ta filtr 10 800 litr toza suv beradi (1800×6).

Bozorda 5 litrli toza suv narxi o'rtacha 8 000 so'm bo'lsa, 10 800 litr suvni bozor narxida olish:

$$\frac{10800}{5} = 2160 \text{ ta idish} \times 8000 = 17280000 \text{ so'm}$$

Bu bilan shuni ko'rish mumkinki, 450 ming so'mlik filtr orqali 17 million so'mlik foyda olinadi. Shuningdek, vaqt jihatdan ham qulay — suvni tashib yurish, do'konga qatnash shart emas. Faqatgina krandan suv quyib, sabr bilan kutish kifoya.

Xulosa: Fizika va matematika fanlari kundalik hayotdagi muammolarga ilmiy asosda yechim topishda katta ahamiyatga ega. Elektr energiyasini tejash, suv bosimini nazorat qilish, ichimlik suvini tozalash kabi dolzarb masalalar aynan shu fanlar orqali tahlil qilinib, oddiy va arzon usullar bilan samarali yechimlar ishlab chiqilishi mumkin. Bu esa inson salomatligi, iqtisodiy farovonlik va yashash sifati uchun muhim omildir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Anarbayev A.I., Qodirov D.B.-Energiya tejash asoslari. O'quv qollanma, TIAME,2021.
2. Turobjonov S.M, Tursunov T., Pulatov X.-Oqova suvlarni tozalash texnologiyasi. Darslik, "Musiqqa nashriyoti"2010.
3. Мансуров В.А.- Основы энергосбережения. Учебно-методическое пособие.БГМУ, 2013

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.